



UDK: 581.1

Dilbar KADIROVA,
TerDU dotsenti, biologiya fanlari nomzodi
E-mail: dilbarqodirova1965@gmail.com

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD M.Djumayeva taqrizi asosida

ZINGIBER OFFICINALE L. HISTORY OF STUDY OF

Annotation

In this article, the history of the study of *Zingiber officinale* L., the worldwide scientific research on the species, *Zingiber officinale*. Botanical description of L., medicinal properties of *Zingiber officinale* L. are discussed. Ginger (*Zingiber officinale* L) is a spice and medicinal plant belonging to the ginger family. Ginger has been used in folk medicine in India and China since ancient times.

Key words: *Zingiber officinale* L., history, type, world, scientific, botaic, description.

ZINGIBER OFFICINALE L. ИСТОРИЯ ИЗУЧЕНИЯ

Аннотация

В этой статье история изучения *Zingiber officinale* L., всемирное научное исследование вида ZINGIBER OFFICINALE. Обсуждаются ботаническое описание L., лечебные свойства *Zingiber officinale* L.. Имбирь (*Zingiber officinale* L) — пряное и лекарственное растение, принадлежащее к семейству имбирных. Имбирь использовался в народной медицине Индии и Китая с древних времен.

Ключевые слова: *Zingiber officinale* L., история, тип, мир, наука, ботаика, описание.

ZINGIBER OFFICINALE L.NING O'RGANILISH TARIXI

Аннотация

Ushbu maqolada *Zingiber officinale* L.ning o'rganilish tarixi, turga oid butun dunyo bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar, *Zingiber officinale*. L ga botaik tavsif, *Zingiber officinale* L. ning dorivorlik xususiyatlari haqida so'z boradi. Zanjabil (*Zingiber officinale* L) ziravor va shifobaxsh o'simlik bo'lib, zanjabildoshlar oilasiga kiradi. Hindiston va Xitoy mamlakatlarida qadimdan xalq tabobatida zanjabildan foydalanib kelinadi.

Kalit so'zlar: *Zingiber officinale* L., tarixi, tur, dunyo, ilmiy, botaik, tavsif.

Kirish. Zanjabil (*Zingiber officinale* L.) qadimdan insonlar tomonidan foydalanilib kelayotgan dorivor o'simliklardan biri bo'lib, uning vatani Xitoy va Hindiston hisoblanadi. Yevropaga birinchi marta qadimgi rimliklar Hindiston bilan savdo-sotiq qilganda birinchi asrda zanjabilni olib kelishgan. XV asrda, Yangi Dunyo qayta kashf etilishi bilan, zanjabil Karib dengiziga olib kelindi, ushbu xududning qulay iqlimi tufayli mazkur dorivor o'simlik keng ko'lamda yetishtirila boshlangan. Eramizgacha bo'lgan davrdagi Xitoy tibbiy kitoblarida, 1500-yil oldingi Misr yozuvlarida ham zanjabilning dorivor xususiyatlari yozib qoldirilgan.

Qadim zamonlardan beri mazkur o'simlik xalq tabobatida dorivor o'simlik sifatida ishlatilgan. Hindlar va Xitoyliklar zanjabilni 5000 yildan ortiq vaqt davomida o'simlik ko'plab kasalliklarni davolash uchun ishlab chiqargan deb hisoblashadi va bu o'simlik hozirda nam tropik mintaqalarda o'stiriladi, Hindiston eng yirik ishlab chiqaruvchidir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. *Zingiber officinale* L.ning introduksion sharoitda bioekologik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlarni xorijlik olimlar Surx, Li va Li (1998), Ernst va Pittler (2000), Bode va Dong (2004), Boone va Shilds (2005), Xrubasik va Pittler (2005) Xrubasik, Pittler va Roufogalis (2005) Grzanna, Lindmark va Frondoza (2005), Tompson va Potter (2006), Yeliopoulos (2007), Shukla va Singx (2007), Ali va boshq. (2008), Nikoll va Xenein (2009), Nader Alla (2017), Xarchilava I.A (2011), Dobyas, Voytix (2019), Gaaga, Tereza A. (2009) tomonidan olib borilgan. Mazkur dorivor o'simlikning bioekologik xususiyatlarini YE.P.Korovin tomonidan o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar amalga oshirilib, 1948-yilda yangi tur sifatida fanga kiritgan.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda Zanjabil o'simligi Fransiya, Italiya, Turkiya, Eron, Hindiston, Xitoy, Pokiston, Ispaniya, Yaponiya, Ozarboyjon, Rossiya va boshqa mamlakatlar hududlarida keng tarqalgan.

Bugungi kunda global isish butun dunyoning global muammosiga aylanib ulgurdi. Bu o'z navbatida qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi va uning sifatiga keskin salbiy ta'sir etib, oziq-ovqat mahsulotlari tanqisligining kuchayib borishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, bu holat Surxondaryo viloyatida kuzatilib, jazirama issiq tufayli qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligi pasayib bormoqda. Bunday holatda Surxondaryo viloyati iqlim sharoitiga mos keluvchi zanjabil (*Zingiber officinale* L) o'simligini yetishtirish va ko'paytirish usullarini yaratish va qishloq xo'jaligiga joriy etish dolzarb masalalardandir.

Ayniqsa, Hindistonda zanjabilning ho'l va quruq ildizidan tibbiyotda va oziq-ovqat sanoatida keng ko'lamda ishlatiladi. Zanjabilning ho'l ildizidan sabzavot sifatida ham ishlatiladi. Undan g'arbiy mamlakatlarda zanjabilli non, shirinlikar, tort, taomlar va yaxna ichimliklar tayyorlanadi. Xalq tabobatida shamollash, tomoq og'rig'i, yo'tal, astma va bo'g'im og'rig'i kasalliklariga qarshi va ishtahani ochuvchi shifobaxsh darmondori sifatida qo'llanilib kelingan (Nadkarni, 2005; Pulliah, 2006; Ebadi, 2007; Kritkar va Basu, 2007; Khare, 2007; Waring, 2010; va boshq).

Hindiston zanjabilni yetishtiruvchi va eksport qiluvchi asosiy mamlakatlardan biri hisoblanib, keyingi o'rinlarda Xitoy, Yaponiya, Indoneziya, Avstraliya va Nigeriya mamlakatlari turadi. Hindiston va Xitoy mamlakatlari zanjabil yetishtiruvchi asosiy mamlakatlar hisoblanadi (Ravindran va Babu, 2005).

Dunyo bo'ylab aholi sonining oshishi keng assortimentdagi dorivor, oziq-ovqatbop va xushbo'y-ziravor o'simliklar xom ashyosi xilma-xilligini ko'paytirishni hamda ulardan yangi turdagi maxsulotlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda. O'z navbatida, bunday xususiyatlarga eksportbop dorivor o'simliklarni tanlash, ular xom ashyosiga bo'lgan ehtiyojlarni mahalliy florada mavjud bo'lgan yoki o'zga hududlar florasiga tegishli introdutsent o'simliklar hisobiga qondirish, o'simliklarni turli tuproq-iqlim sharoitida yetishtirishning samarali usullarini ishlab chiqish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Shu jihatdan, mamlakatimizda inson salomatligi uchun foydali xususiyatlarni saqlovchi qimmatli o'simliklar xom ashyosini ishlab chiqarish hamda yetishtirish yo'llarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunday istiqbolli o'simliklar qatoriga Zingiber officinale L. (*Zanjabil*) ham kiradi. O'simlikning qimmatli dorivor xom-ashyo manbasi ekanligini hisobga olgan holda, turli tuproq iqlim sharoitlarida o'simlikdan eksportbop xom ashyo yetishtirish yo'llarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega. Bu o'rinda *Zingiber officinale* L. o'simligini iqlimlashtirish, ko'paytirish va yetishtirish usullarini ishlab chiqish, sanoat plantatsiyalarini tashkil etish, sifatli xom ashyo tayyorlash yo'llarini takomillashtirish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Zanjabilning birinchi yozma manbaasi Xitoyga (mil. avv. 475-221) yozilgan Konfutsiyning analitiklaridan olingan. Unda Konfutsiyga har bir taom bilan zanjabil yeyish kerakligi aytilgan edi. Miloddan avvalgi 406- yilda rohib Faksian zanjabil qozonlarda o'stirilib, qashshoqlikning oldini olish uchun Xitoy kemalarida tashilgani haqida yozgan. Milodning 150-yilida Ptolemey zanjabil Seylonda (Shri-Lanka) ishlab chiqarilganligini ta'kidlagan. Xom va saqlangan zanjabil Yevropaga O'rta asrlarda olib kirilgan.

Ta'kidlash lozimki, zanjabil qadimdan oziq-ovqatga ziravor sifatida ishlatib kelingan. U juda yoqimli hid va xushbo'ylik beradi. Ko'plab ovqatlarga ta'm berish uchun solinadi. O'zbekistonda ham mahalliy aholi tomonidan "Zanjabil" deb yuritiladigan o'simlik Zerafshaniya Z. o'rganilgan.

Zanjabil kamyobliklik nuqtai-nazaridan birinchi darajali bo'lgan, G'arbiy Pomir Oloydagi nihoyatda kamyob, endem, bo'yi 1 m. gacha yetadigan o'q ildizli, ko'p yillik o't o'simlikdir. Erta bahorda o'simlikning ildiz poyasidan to'pbarglar o'sa boshlaydi. Bu to'pbarglar markaziy poyalarda nov hosil qilib joylashadi. Barg bandi novlarining bo'yi 4-6 sm va eni 1-2 sm atrofida bo'ladi. Novlarning ildizpoyaga qo'shilgan uch tomoni oqish, poyani qamrab turgan joyi och yashil va bandlari esa yashil rangda bo'ladi. Har yili kuzda barg bandlari uzilib tushadi, novlar esa ildizpoyada qolib, kelasi yil ko'karadigan kurtaklarni sovuqdan va tashqi ta'sirlardan himoya qiladi. O'simlik barglari umumiy uzunligi 15-35 sm ga, eni esa 10-15 sm ga yetadi.

Dengiz sathidan 2500-2900 baland tog' tizmalarida Zanjabilning tup sonlari bir muncha ko'proq bo'lib, ya'ni 1m2 maydonda 8-11 tupni tashkil etadi. Buning asosiy sababi o'sha hududda chorva mollarining kam boqilishidir. Tabiatda Zanjabil (Mahalliy aholi-Regel qirg'boshi o'simligini shu nom bilan atashadi) nomi bilan yuritiladigan o'simliklar juda ko'p. Lekin ularning turlari, ishlatilishi va sistematik jihatdan bir-biridan keskin farq qiladi. Zanjabil (Zingiber) oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik, ehtimol vatani janubi-sharqiy Osiyoda yoki uning xushbo'y, o'tkir ildizpoyasi ziravor, xushbo'y-lashtiruvchi vosita, oziq-ovqat va dori sifatida ishlatiladi. Uning umumiy nomi Zingiber yunoncha zingiberisdan olingan. Hindiston va Xitoyda uning ishlatilishi qadimgi davrlardan ma'lum bo'lgan va birinchi asrga kelib savdogarlar O'rta er dengizi mintaqasiga zanjabilni olib kirishgan. XI asrga kelib, bu Angliyada yaxshi ma'lum bo'lgan. Ispanlar uni G'arbiy Hindistonga va Meksikaga zabt etilgandan ko'p o'tmay olib kelishdi va 1547-yilga kelib zanjabil Santyagoda Ispaniyaga eksport qilindi.

Tibbiy zanjabil (*Zingiber officinale* Roscoe), zanjabil oilasi (*Zingiberaceae*) ham xalq, ham rasmiy tibbiyot amaliyotida keng qo'llaniladi. "Zanjabil" nomi "shox tanasi" degan ma'noni anglatadi va uning ildizini tavsiflaydi. U o'sishda, oq va pushti kurtaklari bor, ular sariq gullarga aylanadi. Poyasi quriganiga, ildizpoyalarni yig'ib olishda va darhol unib chiqmaslik uchun kuydiriladi. Zanjabilni ildizpoyalarni yetishtirishda doimiy ravishda mo'tadillikni saqlash ushbu o'simlikni yetishtirishning asosiy omil hisoblanadi. Bu omil o'z navbatida o'simlikni vegetativ usulda ko'paytirishda asosiy rol o'ynaydi.

Iqlim va tuproq:

Zanjabil iliq va nam iqlim sharoitida eng yaxshi o'sadi. Hosilni muvaffaqiyatli yetishtirishning asosiy garovi – bu uning o'rta yig'ingarchilik mavsumida ekishdir. Butun ekin davrida yuqori namlikning saqlab turilishi maqsadga muvofiqdir. Biroq, hosil to'liq bo'lishi uchun tuproq tabiiy va mineral o'g'itlarga boy bo'lishi kerak.

Zanjabil etishtirish uchun tuproq holati.

Zanjabil qumli yaxshi qurigan tuproqlarda yaxshi rivojlanadi (gil, qizil loy). Bir yildan keyin bir xil joyda zanjabil yetishtirish tavsiya etilmaydi.

Rus olimi L.Vexov o'zining "Zanjabil-sog'lik, uzoq umr ko'rish, kasalliklarning oldini olish, vaznni normallashtirish uchun 150 ta davolovchi retseptlar" nomli kitobida zanjabilning foydali xususiyatlari xvqida ko'plab ma'lumotlar keltirgan.

Ko'plab kasalliklarga davo bo'lgan bu yoqimli va noyob ziravor, ovqat hazm qilish tizimini yaxshilash uchun ajoyib vosita hisoblanib, vazn yo'qotish diyetalarining qimmatli tarkibiy qismi, hayot sifatini oshirish va faol uzoq umr ko'rishning muhim omili, kuchli oksidlovchi - bularning barchasi zanjabilga xosdir.

Taniqli rus olimi Nikolay Danikov o'zining "Zanjabil sog'lik va uzoq umr" nomli kitobida Zanjabil - ilmiy va xalq tabobatida ishlatiladigan achchiq aromatik o'simlik ekanligi bildirib, o'zining shaxsiy tajriba, izlanishlar va kuzatuvlarga asoslanib, muallif ko'plab kasalliklarga zanjabil davo ekanligini rasmiy ravishda tasdiqlangan va "Uni kundalik ovqatlanishingizga qo'shing va tez orada immunitetingiz kuchayganini, yengilligingiz va kuchingiz oshganini, kasalliklar kamroq bezovta qilinishini sezasiz" deb ta'rif beradi.

Yuriy Konstantinov esa, o'zining "Zanjabil-sog'lik, go'zallik va uzoq umrning ildizi" nomli asarida "Zanjabil - bu haqiqiy davolovchi vosita, u yallig'lanishga qarshi, davolovchi ta'sirga ega, qon aylanishini yaxshilaydi va metabolik jarayonlarni tezlashtiradi, qon bosimi va xolesterin miqdorini pasaytiradi, ovqat hazm qilishni rag'batlantiradi va tanani tozalaydi. Zanjabil xotirani kuchaytiradi, kuchli antioksidant bo'lib, saraton kasalligini oldini oladi, immunitetni oshiradi va ozishga yordam beradi. Ongli ravishda har qanday tabiiy narsalarga e'tibor qaratadigan odamlar uchun zanjabil hayotning bir qismiga aylanishi kerak. O'z sog'lig'iga g'amxo'rlik qilishni boshlaganlar uchun zanjabil bu vazifani yengishga yordam beradi,

chunki uni ishlatish bilan tayyorlangan barcha narsalar nafaqat foydali, balki mazali hamdir” deb baho bergan muallif o'z kitobida.

Falsafa fanlari doktori Wolfgang Marx mazkur noyob o'simlikka baho berar ekan, quyidagi fikrlarni bildirgan. “Standartlashtirilgan zanjabil (*Zingiber officinale*) ekstrakti” qusishlarga qarshi terapiyaning sezilarli yutuqlariga qaramay, ko'ngil aynishi va qayt qilish, saraton kasalligi uchun muhim dori vositasi bo'lib qolmoqda. Uning tarkibida foydali ta'sir o'tkazadigan bir qancha bioaktiv birikmalar mavjud, davolashning ushbu natijalarida ishtirok etadigan ko'plab foydali moddalarga boy.

Zanjabilning shifobaxsh xususiyatlari haqida rus olimlaridan Polenova Tatyana Petrovnaning “100 kasallikka qarshi mo'jizaviy zanjabil” deb nomlangan kitobida zanjabil o'simligining dorivorlik xususiyatlari haqida ko'plab ma'lumotlar keltirilgan.

Xulosa. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, noyob *Zingiber officinale* L. dan foydalanish juda qadim zamonlarga borib taqaladi. O'simlik dorivor xisoblanib, bu haqida ko'plab olimlarning ishlari diqqatga sazovordir. Uning o'ziga xos foydali xususiyatlari o'simlikni yanada chuqurroq o'rganishga undaydi. Shu bois nafaqat dunyo miqyosida balki mamlakatimizda ham *Zingiber officinale* L. ning keng miqyosida ekish va plantatsiyalarini yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu jihatdan, o'simlikning respublikamizning har bir hududida o'sish siklini, bioekologiyasini o'rganish, yetishtirish usullarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Bugungi kunda global xavf darajasiga ko'tarilgan o'sma kasalliklarini davolashda Yevropa tajribasidan kelib chiqqan xolda mamlakatimizda ham ushbu o'simlikdan foydalangan xolda kasalliklarni bartaraf etish va oldini olishda qo'llash yaxshi natija beradi.

O'simlikni dorivorlik jihatlarini ko'proq inobatga olgan xolda dori-darmon sanoatida va xalq tabobatida keng miqyosida foydalanish, farmatsevtika sanoati sohasiga yana bir yangi tur dorivor o'simlikni olib kirish bugungi kunda ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Алексина Н.Д., Балнокин Ю.В., Гавриленко В.Ф., Жигалова Т.В.
2. Мейчик Н.Р., Носов А.М., Полесская О.Г., Харитоншвили Е.В., Чуб В.В. «Физиология растений», М.: Академия, 2007. - 640 с.
3. Белолипов И.В. Ўзбекистон ССР Фанлар академиясининг Ботаника боғидаги Инсирвиллеа Семиреченская ривожланиш ритми, гуллаш ва мева бериш биологияси // Ўсимликларнинг таниши ва иқлимлаштирилиши. Тошкент: Фан, 1980, 17-сон, п. 108-115.
4. Watt J.M., Breer-Brandwijk M.G Medicinal and poisonous plants of South and East Africa. (1962).
5. Viestad A. “Recipes and chefs travel the Indian Ocean spice route.” San Francisco: Chronicles. (2007). 89-б.
6. Гусев Н.А. «Некоторые способы изучения водного режима растений». 1960 г. - 61 с
7. Доспексов Б.А. «Методы полевых экспериментов». М., Агропромиздат, 1985.-347 с.
8. Dalbi A. "Dangerous tastes: the story of spices." University of California Press. (2002).
9. Даников Н.И. "Целебный имбирь" Москва 2014-й 210-б.